

OLIV TA'LIM TALABALARIDAGI MA'NAVIY VA MA'RIFIY SIFATLARNING OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Izaitullayeva Lazokat Eshimbayevna

Angren Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogika orqali insonning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib borishi, oliy ta'lim talabalariga mutaxassislik bilimlarini berish bilan birgalikda ularni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashlari oshirish xur fikrlilik to'g'risida yozilgan.

АННОТАЦИЯ

В данной статье написано о развитии личности в процессе образования средствами педагогики, развитии духовно-педагогического мировоззрения студентов высших учебных заведений, а также даже им специальных знаний.

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik, davlat ramzlariga hurmat, zamonaviy bilimlarga intilish, media madaniyatni rivojlantirish, tarbiya borasidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish maqsadida xorijiy davlatlarga ilmiy safarlar uyushtirish¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida 2019-yil 31-dekabr, 1059-son Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko'ra O'zbekiston "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

Talabalik davri - bu inson hayotining yoshlikdan kamolotga o'tish davri. O'smirlik ("talaba") yoshi, o'smirlik - bu mustaqil, kattalar hayotining boshlanishi. O'smirlik davrida quyidagi yosh davrlari ajratiladi: 16-17 yosh - erta yoshlik, 17-20 yosh - yoshlikning o'zi, 20-21 yosh - kech yoshlik. Bu yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari bor, lekin ayni paytda ular ko'plab umumiy xususiyatlarga ega. B. G. Ananov, N. V. Kuzmina, A. A. Rean, V. I. Slobodchikov, V. A. Slastenin, Ye. I.

¹ Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori

Stepanova va boshqa bir qator tadqiqotchilarning tadqiqotlarida talabalarning shaxslararo munosabatlari, birinchidan, yosh bilan bog'liq deb aytishga imkon beradigan muhim empirik va nazariy materiallar to'plangan ushbu ijtimoiy guruhning xususiyatlari, ikkinchidan, uning o'ziga xos faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari qayd etilgan.

Talabalarga bilim berishning ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: „Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladiga turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir“, degan so'zlarni ta'kidlash o'rinli –deb aytib o'tganlar. Agar jamiyat ma'rifatli bo'lsa, bu jamiyatning istiqboli, kelajagi yorug'ligini anglatadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashi ta'lim sifatini o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'limda talabalarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lajak mutaxassislarda kasb odobini shakllantirishdan iboratdir. Bu tanlagan kasbga muhabbatni o'stirish, kasb odobiga xos axloqiy tushunchalar, xulqiy normalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Masalan, talabalar ongida pedagogik kasb odobini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar, pedagogika va psixologiya hamda ixtisos fanlari kafedralari muhim rol o'ynaydi. Chunki o'qituvchi odobi pedagogika va psixologiyani, shuningdek, ixtisoslik fanlarini o'rganish natijasida, pedagogik kasbni bevosita amalda egallab olish tufayli shakllanadi. Prezidentimiz esa 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Ma'naviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy ma'naviyat” fanlari kiritilishi ham oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini kengaytirishdagi salmoqli ishlarning davomidir¹.

Xulosa qilib aytganda, talabalarni auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali tarbiyalash hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri. Shunday ekan ularni bilim olishlari bilan birga kasbiy ma'naviyatga ham tayyorlab borish lozim. Talabalarni ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini oshirib boorish orqali ta'lim sifatini oshishiga erishamiz. Zeroki ta'limni tarbiya bilan birga olib boorish sharqona madaniyatimiz namunasidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori. Uzlusiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi.
3. B.X.Xodjaev. Umumiy pedagogika darslik. Toshkent 2017 yil.
4. O‘.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov “Pedagogika” Toshkent 2008 yil.
5. A.Erkayev “Ma’naviyatshunoslik” Monografiya 2018 yil.
6. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda kasblar bilan tanishtirish texnologiyasi. Fan va innovatsiya konfrensiya 1-son. D.Sh.Isabekova. 136-140 bet.
7. Erius. Scientific Journal Impact Factor (OAK 23) N.Sh.Gaziyeva “Tarbiyachi va uning maktabgacha ta’lim faoliyatida tutgan o‘rni”). Special issue 12 october 2023.
8. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayoni tashkil etish. Volume 2 Special Issue 10. D.SH.Isabekova.